

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Boshqaruvining
2023-yil “2” *avgust* dagi
178 - sonli qaroriga
4 - ilovasiga muvofiq
“MA’QULLANGAN”

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Kuzatuv kengashining
2023-yil “22” *sentabr* dagi
2023/22 sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”
Yuridik departament

Metodologiya boshqarmasida
2023-yil “4” *oktabr* da
568 - son bilan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan
yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni
rag‘batlantirish tartibi**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi va “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel) Nizomlariga hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ushbu Tartib “O‘zsanoatqurilishbank” ATB (keyingi o‘rinlarda - Bank)da tarkibiy bo‘linmalar xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarlik (sodir etilishi rejalashtirilgan) haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar (xodimlar)ni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Agentlik – O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoki o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani, ya‘ni pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tushdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, va‘da qilish va berish, shuningdek pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar olish, xodim tomonidan pora olish yoki qonunga xilof boshqa maqsadlarda o‘z xizmat (lavozim) mavqeyidan noqonuniy foydalanish;

xodim – Bank xodimlari, shu jumladan Boshqaruv va Kengash a‘zolari (Bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan har qanday shaxs);

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar – Bank xodimlari, shu jumladan Boshqaruv, Kengash a'zolari, fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va Bank mijozlari (yuridik va jismoniy shaxslar);

korruptsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar – O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 61¹, 175⁸, 193¹ va 193²-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korruptsiyaga oid jinoyatlar – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 167 moddasining ikkinchi qismi "g" bandi, 168-moddasining uchinchi qismi "v" bandi, 175, 192⁹, 192¹⁰, 205, 209-214 moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeyidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar.

3. Quyidagilar korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Bankda korruptsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

Bankda korruptsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

Bank xodimlarining korruptsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

4. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida belgilanishi mumkin.

Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, shaffoflik, hisobdorlik, ko'maklashgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga qat'iy rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

II. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish asoslari

5. Xodimlar Bank va uning tarkibida ularga oshkor bo'lgan har qanday korruptsiyaviy huquqbuzarliklar haqidagi xabar (ma'lumot)larni Komplayens-nazorat departamenti va (yoki) Bankning quyidagi aloqa kanallaridan biri (orqali, yoki) Agentlik, huquqni muhofaza qilish organlariga yuborishlari mumkin:

(78) 120-45-00 (10-25, 86-08, 11-60)

<https://sqb.uz/anticorruption>;

www.facebook.com/sqbuz;

@sqbanticor_bot;

0-800-120-88-88;

<https://myintranet.sqb.uz>;

Agentlikning <https://anticorruption.uz/ru> saytiga;

to'g'ridan-to'g'ri huquqni muhofaza qilish organlariga.

6. Yol'gon xabar berganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 237-moddasida, tuhmat qilganlik uchun ushbu Kodeksning 139-moddasida hamda O'zbekiston

Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 40-moddasida javobgarlik belgilangan.

7. Bankda sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

xodimlar, fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan o'zlariga nisbatan pora talab qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli davlat organlariga (O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonuni 7-moddasida ro'yxati keltirilgan) bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

nodavlat tijorat tashkilotining yoki davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisi o'ziga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida yoki o'ziga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi;

korrupsiyaga oid jinoyatni sodir etganligi uchun qidiruvda bo'lgan shaxs to'g'risida O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlariga berilgan xabar asosida qidiruvdagi shaxs ushlanishi.

8. Bankda sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan Odob-axloq komissiyasining qaroriga binoan rag'batlantirilishi mumkin:

a) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdorida (barcha soliq va yig'imlar bilan birga);

b) pora summasi (yetkazilgan zarar, o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati) bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha bo'lsa - bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida (barcha soliq va yig'imlar bilan birga);

v) pora summasi (yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati) bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravaridan 100 baravarigacha bo'lsa - bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida (barcha soliq va yig'imlar bilan birga);

g) pora summasi (yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati) bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan ko'p bo'lsa - bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari miqdorida (barcha soliq va yig'imlar bilan birga).

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik to'g'risidagi murojaat (xabar) yuzasidan o'tkazilayotgan xizmat tekshiruv mobaynida ahamiyatga ega bo'lgan dalillar haqida ushbu xizmat tekshiruvni o'tkazayotgan ishchi guruhga xabar berganlik yoki bunday tadbirlarni o'tkazishda bevosita ko'maklashganlik uchun tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida.

Bir xodimga esdalik sovg'a qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan oshmasligi lozim.

III. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi

9. Rag'batlantirish masalasi bankning Odob-axloq komissiyasi tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha Jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi (qarori) va (yoki) Ma'muriy ishlar bo'yicha sudning qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng ko'rib chiqiladi.

10. Bunda, dastlab Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining yoki Komplayens-nazorat departamenti rahbarining (keyingi o'rinlarda – Departament rahbari) rag'batlantirish to'g'risidagi taqdimnomasi Bank boshqaruvi Raisi muhokamasiga kiritiladi.

Boshqaruvi Raisi tomonidan taqdimnoma ko'rib chiqilgandan so'ng Departament rahbari rag'batlantirish to'g'risidagi taqdimnoma va unga ilova qilingan hujjatlarni Boshqaruvi Raisining ko'rsatmasiga asosan Odob-axloq komissiyasiga kiritiladi.

Odob-axloq komissiya muhokamasiga rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun taqdimnoma bilan birga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

ro'yxatdan o'tgan ariza (murojaat) nusxasi yoki og'zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi (qarori);

shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlari (plastik kartasi) to'g'risida Bank ma'lumoti.

11. Odob-axloq komissiyasi tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingandan so'ng hujjatlarning to'liqliligi, asosliligi hamda ushbu Tartib talablariga rioya qilinganligi ko'rib chiqiladi va qaror qabul qilinadi.

12. Rag'batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to'liq emasligi hamda ushbu Tartib talablariga rioya qilinmaganlik holati aniqlangan taqdirda, hujjatlar to'plami taqdimnomani kiritgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organiga va (yoki) Departament rahbariga qaytariladi.

Qaytarish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Tartib talablari asosida rag'batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

13. Rag'batlantirish bo'yicha Odob-axloq komissiya tomonidan qabul qilingan qaror ijrosini ta'minlash va natijasi bo'yicha hisobotni Departament rahbariga yuborish uchun:

rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti tarzida belgilangan bo'lsa - Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamentiga;

rag'batlantirish esdalik va (yoki) tashakkurnoma tarzida belgilangan bo'lsa – Xodimlarni boshqarish departamentiga yuboriladi.

Bunda rag'batlantirish bo'yicha hisobot, ushbu amaliyot amalga oshirilgan kundan e'tiboran keyingi ish kunidan kechiktirilmasdan tegishli mas'ul bo'linma tomonidan taqdim etilishi lozim.

14. Odob-axloq komissiyasining rag'batlantirish yuzasidan qabul qilgan qarorini bajarish bo'yicha tegishincha Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment hamda Xodimlarni boshqarish departamentlari rahbarlari mas'ul bo'lib hisoblanadilar.

Rag'batlantirish:

bir martalik pul mukofoti tarzida belgilangan pul mukofoti Odob-axloq komissiyasining qarori qabul qilinganidan so'ng, ushbu xodim(lar)ning shaxsiy hisobvarag'i (plastik kartasi)ga mablag'larni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi;

tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a tarzida belgilangan holda qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg'a qilinadigan buyum xarid qilinganidan so'ng Boshqaruvi Raisi va (yoki) o'rinbosari tomonidan tantanali tarzda topshiriladi.

IV. Yakuniy qoidalar

15. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan xodimlar ta'qibga olinmaydi. Bank o'z xodimlari manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubhali xulq-atvori yoki korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari buzilgan (buzilishi mumkin)ligi haqida xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimini tushirish, diskriminatsiya, zulm o'tkazish, ta'qib qilish singari o'ch olish harakatlariga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.

16. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar faqatgina qonun hujjatlarida belgilangan talablar asosidagina oshkor qilinishi mumkin.

17. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

18. Bank xodimlari tomonidan atayin yolg'on xabar yuborish bankning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablarini buzish va Odob-axloq qoidalariga zid xulq-atvor namunasi sifatida baholanadi va bunday xabarlarni yuborgan xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

19. Ushbu Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.